



## TURON XALQLARI HARBIY SAN'ATINING TARIXIY ASOSLARI VA JANGOVAR TAKTIKA TARAQQIYOTI

**Nabiyev Akmal Odiljanovich**

*07984-harbiy qism komandirining birinchi o'rinbosari-shtab boshlig'i*

*e-mail: nabiyevao@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Turon xalqlari harbiy san'atining tarixiy asoslari, jangovar taktika taraqqiyoti, qo'shin tuzilishi, qurol-yarog'lar evolyutsiyasi va sarkardalik mahorati masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi davrlardan o'rta asrlargacha bo'lgan jarayonda Turon hududida harbiy ishning shakllanishi, otliq qo'shinlar, kamonchilik, mudofaa inshootlari, tezkor hujum, chekinib qayta zarba berish, qanotlardan aylanib o'tish, razvedka va harbiy intizom kabi taktik usullar yoritiladi. Maqolada ajdodlarimizning harbiy merosi faqat jangovar tajriba sifatida emas, balki davlat xavfsizligi, siyosiy mustaqillik, harbiy boshqaruv va vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq tarixiy hodisa sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Turon xalqlari, harbiy san'at, jangovar taktika, qo'shin tuzilishi, otliq qo'shin, qurol-yarog', mudofaa, sarkardalik, Amir Temur, harbiy meros.

### **HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE MILITARY ART OF TURAN PEOPLES AND THE DEVELOPMENT OF COMBAT TACTICS**

**Abstract.** This article analyzes the historical foundations of the military art of the peoples of Turan, the development of combat tactics, army organization, the evolution of weapons, and military leadership. The study examines the formation of military affairs in the territory of Turan from ancient times to the Middle Ages, including cavalry forces, archery, defensive fortifications, rapid attacks, feigned retreat followed by counterattack, flanking maneuvers, reconnaissance, and military discipline. The military heritage of the ancestors is interpreted not only as combat experience, but also as a historical phenomenon



connected with state security, political independence, military administration, and patriotic education.

**Keywords:** peoples of Turan, military art, combat tactics, army organization, cavalry, weapons, defense, military leadership, Amir Temur, military heritage.

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОЕННОГО ИСКУССТВА НАРОДОВ ТУРАНА И РАЗВИТИЕ БОЕВОЙ ТАКТИКИ

**Аннотация.** В статье анализируются исторические основы военного искусства народов Турана, развитие боевой тактики, организация войска, эволюция вооружения и вопросы полководческого мастерства. В исследовании рассматривается формирование военного дела на территории Турана с древнейших времён до средневековья, включая конные войска, стрельбу из лука, оборонительные сооружения, стремительные атаки, ложное отступление с последующим контрударом, обходные манёвры с флангов, разведку и воинскую дисциплину. Военное наследие предков оценивается не только как боевой опыт, но и как историческое явление, связанное с безопасностью государства, политической независимостью, военным управлением и патриотическим воспитанием.

**Ключевые слова:** народы Турана, военное искусство, боевая тактика, организация войска, конница, вооружение, оборона, полководческое мастерство, Амир Темур, военное наследие.

**Kirish.** Turon xalqlari harbiy san'ati Markaziy Osiyo tarixining eng muhim va qadimiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bu hududda yashagan qadimgi chorvador, dehqon, shaharsoz va ko'chmanchi jamoalar o'z hayoti davomida tashqi xavf-xatar, bosqin, hududiy raqobat va siyosiy kurashlar bilan yuzma-yuz kelgan. Shu sababli harbiy ish dastlab oddiy mudofaa ehtiyojidan kelib chiqqan



bo'lsa, keyinchalik qo'shin tuzish, qurol-yarog' yasash, qal'a va mudofaa inshootlarini barpo etish, jangovar tartib, sarkardalik va davlat harbiy siyosati darajasiga ko'tarildi.

Turon xalqlari harbiy san'atining o'ziga xos jihati uning tabiiy-geografik muhit, chorvadorlik va dehqonchilik xo'jaligi, shahar madaniyati hamda davlat boshqaruvi bilan bog'liq holda rivojlanganidir. Dasht va tog'oldi hududlarida tezkor otliq qo'shinlar, ochiq maydon janglari, kamondan otish va chaqqon harakat muhim bo'lgan. Shahar va voha hududlarida esa qal'a, devor, mudofaa chizig'i, piyoda qo'shin, muhandislik inshootlari va uzoq muddatli mudofaa tajribasi rivojlandi. Turon xalqlari harbiy san'ati faqat urushlar tarixi bilan cheklanmaydi. U davlatlilik, vatan himoyasi, strategik tafakkur, intizom, harbiy boshqaruv, xalqning ozodlikka intilishi va ajdodlar merosini anglash bilan bevosita bog'liqdir. Harbiy tarixga oid manbalarda O'zbekiston hududida harbiy tizim, qurol-yarog'lar, qo'shin tuzilishi, jang taktikasi va harbiy boshqaruv qadimgi davrdan boshlab bosqichma-bosqich shakllangani ko'rsatiladi. Mazkur manbalar ushbu maqolaning asosiy tayanchini tashkil etadi.

**Asosiy qism.** Turon xalqlari harbiy san'atining dastlabki ildizlari ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. Dastlabki qurollar ovchilik va o'zini himoya qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Yog'och nayza, chaqmoqtosh uchli nayza, suyakdan yasalgan uloqtirgichlar, kalta nayzalar, pichoq va xanjarlar insonning tabiat va dushman bilan kurashida asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Keyinchalik o'q-yoyning ixtiro qilinishi jangovar masofani kengaytirdi va jang taktikasi rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi [1]. Neolit va bronza davrlariga kelib qurol-yarog'lar takomillashdi. Tosh, suyak va yog'och qurollar bilan bir qatorda metall qurollardan foydalanish kuchaydi. Bronza davrida nayza, xanjar, bolta va boshqa jangovar buyumlarning takomillashuvi harbiy to'qnashuvlarda zarba berish imkoniyatini oshirdi. Bu jarayon jamiyatning xo'jalik shakllari — ko'chmanchi chorvadorlik va o'troq dehqonchilikka ajralishi bilan ham bog'liq edi.



Ko'chmanchi guruhlar tez harakatlanish, ot va yaylov hududlaridan foydalanish orqali jangovar chaqqonlikni kuchaytirgan bo'lsalar, o'troq voha aholisi mudofaa inshootlari va qal'a qurilishiga ko'proq e'tibor qaratdi [1; 2]. Turon harbiy san'atida otliq qo'shinlar alohida o'rin tutgan. Ot minish madaniyati, keng dashtlarda tez harakatlanish zarurati va kamondan otish mahorati bu hudud xalqlarining jangovar ustunliklaridan biriga aylandi. Otliq jangchi dushmanga tez yaqinlashish, masofadan zarba berish, qisqa muddatda chekinish va yana qayta hujum qilish imkoniga ega edi. Bu usul og'ir harakatlanadigan piyoda qo'shinlarga nisbatan katta taktik ustunlik bergan [2; 3].

Qadimgi Turon harbiy taktikasining muhim shakllaridan biri dushmanni chalg'itish va chekinib qayta zarba berish usuli edi. Harbiy tarixga oid tadqiqotlarda miloddan avvalgi davrlarda otliq suvoriylarning o'q-yoydan mohirona foydalanishi, dushmanni hujum bilan zaiflashtirib, so'ng chekinish orqali chalg'itishi va kutilmagan qayta hujum bilan mag'lub etishi ajdodlarimizning harbiy san'atga qo'shgan hissasi sifatida qayd etiladi [2]. Bu taktika keyingi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi harbiy an'analarda ham davom etdi. Turon xalqlari harbiy san'atida jangovar aravalar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Qadimgi dunyo urushlarida jangovar arava tezlik, ruhiy ta'sir va zarba berish vositasi sifatida ishlatilgan. Harbiy manbalarda g'ildiraklariga pichoqlar o'rnatilgan aravalar, otliq va piyoda kuchlarning birgalikdagi harakati hamda hujum paytida dushman safini buzishga qaratilgan jangovar vositalar haqida ma'lumotlar uchraydi [2]. Bunday vositalar harbiy texnikaning o'z davriga xos shakli bo'lib, jang maydonidagi ustunlikni oshirishga xizmat qilgan.

Mudofaa inshootlari Turon xalqlari harbiy san'atida alohida yo'nalishni tashkil etgan. O'troq dehqonchilik vohalarida shahar devorlari, qal'alar, qo'rg'onlar, minoralar, darvozalar va mudofaa xandaqlari qurilgan. Bunday inshootlar faqat harbiy vazifa bajarmagan, balki shahar hayoti, savdo yo'llari, suv



manbalari va aholining xavfsizligini ta'minlash uchun ham zarur bo'lgan. Harbiy ish tarixi bo'yicha manbalarda harbiy san'at davlatlilik tarixi bilan chambarchas bog'liq rivojlangani, ilk davlatlar paydo bo'lishi bilan mudofaa inshootlari va qo'shin tuzish davlatning muhim funksiyasiga aylangani qayd etiladi [2]. Qadimgi va o'rta asrlarda qo'shin tuzilishi jamiyatning siyosiy va ijtimoiy tuzilmasi bilan bog'liq bo'lgan. Dastlab qabila va urug' ittifoqlari asosida harbiy guruhlar tuzilgan bo'lsa, davlatlar shakllangach, doimiy yoki yarim doimiy qo'shinlar paydo bo'ldi. Qo'shin boshqaruvi hukmdor, lashkarboshi, sarkarda, bek, amir yoki noiblar orqali amalga oshirilgan. Harbiy kuchning tuzilishi hukmdor hokimiyatini saqlash, hududni himoya qilish va tashqi yurishlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan [2; 4].

Turon xalqlari jangovar taktikasida razvedka va axborot muhim ahamiyatga ega edi. Dushmanning soni, joylashuvi, harakat yo'nalishi, suv manbalari, tog' yo'llari va qal'a mudofaasi haqida oldindan ma'lumot olish jang natijasini belgilagan. Tezkor otlig guruhlar razvedka, xabar yetkazish, dushman orqasiga o'tish va aloqa yo'llarini kuzatishda faol ishlatilgan. Bunday usullar keyinchalik Amir Temur davridagi harbiy boshqaruv va yurish rejalashtirish tizimida yanada takomillashgan [3; 5]. Turon xalqlari harbiy san'atining muhim jihatlaridan biri jangovar intizom va saf tartibidir. Harbiy kuch son jihatdan ko'p bo'lishi yetarli emas; uning muvaffaqiyati qo'shin ichidagi tartib, buyruqqa bo'ysunish, safni buzmaslik, jang paytida bir markazdan boshqarilish va har bir bo'linmaning vazifasini aniq bajarishiga bog'liq bo'lgan. Harbiy tarix fanida jang natijasiga qo'shinlarning soni, sifati, qurol-yarog'i, harbiy yetakchilik darajasi, siyosiy va axloqiy omillar ta'sir qilishi ta'kidlanadi [4].

O'rta asrlarda Turon hududida harbiy san'atning rivojlanishi turli sulolalar va davlatlar tajribasida namoyon bo'ldi. Turk xoqonligi, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Shayboniylar, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari davrida qo'shin tuzilishi, qurol-yarog'lar, harbiy boshqaruv va



jangovar tartib har bir davr sharoitiga mos ravishda o'zgarib bordi. Harbiy ish tarixi bo'yicha qo'llanmalarda O'zbekiston hududida harbiy tizim qadimgi davrdan 1917-yilgacha bo'lgan jarayonda bosqichma-bosqich yoritilgan [1]. Turk xoqonligi va undan keyingi turkiy davlatlarda otliq qo'shinlar asosiy harbiy kuch bo'lib qoldi. Bunda yengil otliq kamonchilar, og'ir qurollangan suvoriylar, qo'riqlovchi guruhlar va hukmdor atrofidagi maxsus harbiy birliklar muhim o'rin tutgan. Turkiy jangovar an'anada dushmani ochiq maydonga chiqarish, qanotlardan aylanib o'tish, soxta chekinish, tezkor yurish, uzoq masofali harakat va kutilmagan zarba berish taktikasi keng qo'llangan [3; 6].

Xorazmshohlar davrida harbiy san'at davlat hududining kengligi, chegara mudofaasi va qo'shinlarni turli yo'nalishlarda boshqarish zarurati bilan bog'liq holda rivojlandi. Xorazmshohlar davlatida shaharlar, qal'alar va chegara hududlari mudofaasi muhim bo'lgan. Biroq siyosiy markazlashuvdagi muammolar, ichki ziddiyatlar va Chingizxon bosqini davrida qo'shinlar o'rtasidagi muvofiqlashuvning yetarli bo'lmagani davlatning harbiy imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi [2; 7]. Jaloliddin Manguberdi harbiy mahorati Turon xalqlari jangovar an'alarining yorqin namunalaridan biridir. U Chingizxon qo'shinlariga qarshi kurashda jasorat, tezkor qaror qabul qilish, manevr, kichik kuch bilan yirik dushmanga zarba berish va jangovar ruhni saqlash qobiliyatini namoyon etgan. Jaloliddin tajribasi shuni ko'rsatadiki, harbiy san'at faqat qo'shin soni bilan emas, sarkardaning irodasi, vaziyatni baholash qobiliyati va jangchilarning ruhiy tayyorgarligi bilan ham belgilanadi [4; 7].

Amir Temur davrida Turon xalqlari harbiy san'ati eng yuqori bosqichlardan biriga ko'tarildi. Temur qo'shin tuzilishi, saf tartibi, razvedka, intizom, tezkor yurish, strategik rejalashtirish, qanotlardan zarba berish, zaxira kuchlardan foydalanish, dushman kuchlarini parchalash va harbiy yurishlarni oldindan puxta tayyorlashga katta e'tibor qaratdi. Harbiy tarixga oid o'quv qo'llanmalarida Amir Temur harbiy yurishlari va harbiy san'ati alohida mavzu



sifatida yoritilishi bejiz emas [4]. Amir Temur qo‘shini markaz, o‘ng qanot, chap qanot, ilg‘or qism, orqa qism va zaxira kuchlardan iborat murakkab jangovar tartibga ega edi. Bunday tuzilma jang maydonida moslashuvchan harakat qilish, dushmanning asosiy kuchini aniqlash va zarur paytda hal qiluvchi zarba berish imkonini yaratgan. Temuriy harbiy san‘atning kuchli tomoni shundaki, unda faqat jasorat emas, balki boshqaruv, intizom, hisob-kitob va strategik fikr ustuvor bo‘lgan [3; 5]. “Temur tuzuklari”da harbiy boshqaruv, qo‘shin tartibi, amirlar mas‘uliyati, mukofot va jazolash tizimi, intizom va davlat xavfsizligi masalalariga katta e‘tibor beriladi. Bu jihat Amir Temur harbiy san‘atining faqat jang maydonidagi taktika bilan cheklanmaganini ko‘rsatadi. Unda davlat boshqaruvi, harbiy intizom, siyosiy barqarorlik va qo‘shin ruhiyatini bir butun tizim sifatida ko‘rish mavjud edi [5; 8].

Turon xalqlari harbiy san‘atida qurol-yarog‘lar taraqqiyoti ham muhim o‘rin egallaydi. Qadimgi davrdagi yog‘och nayza va chaqmoqtosh uchli qurollardan boshlab, bronza va temir davridagi qilich, xanjar, nayza, bolta, qalqon, dubulg‘a, sovut, o‘q-yoy, keyinchalik manjaniq, naftandoz, tosh otuvchi qurilmalar, zambarak va o‘qotar qurollargacha bo‘lgan jarayon harbiy texnikaning bosqichma-bosqich rivojlanganini ko‘rsatadi [1; 2].

Shayboniylar davrida qo‘shin tarkibida naftandozlar, manjaniqchilar va tosh otuvchilar bo‘lgani, ular shahar va mudofaa qo‘rg‘onlarini egallashda muhim rol o‘ynagani qayd etiladi [1]. XVI asrning ikkinchi yarmidan Abdullaxon II qo‘shinida chetdan keltirilgan kichik zambaraklar va sovutlar paydo bo‘lgani ham harbiy texnikaning o‘zgarib borayotganini ko‘rsatadi [1]. Bu holat Turon harbiy san‘ati an‘anaviy otliq jangovar usullar bilan birga muhandislik va o‘qotar qurol imkoniyatlarini ham o‘zlashtira boshlaganini bildiradi.

Xiva xonligi qo‘shinida otliq va piyoda navkarlar mavjud bo‘lib, tezkor talonchilik yoki yurishlarda asosan otliq qo‘shinlar, shahar va qal‘alar himoyasida esa piyoda qo‘shinlar ishlatilgan. Asosiy qurollar sifatida o‘q-yoy,



qilich, nayza va dubulg'a qayd etiladi. Bu ma'lumotlar o'rta asrlar va yangi davr boshlarida ham otliq qo'shinlarning jangovar ahamiyati saqlanib qolganini ko'rsatadi [1].

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida harbiy boshqaruv ko'proq an'anaviy tuzilma, qabila va mahalliy kuchlar, yollanma jangchilar va hukmdorga sodiq harbiy qatlamga tayanib rivojlandi. Biroq XIX asrga kelib Rossiya imperiyasining zamonaviy qurol, artilleriya va tashkiliy ustunligi mahalliy qo'shinlarning texnik va ma'muriy zaif tomonlarini ochib berdi. Bu jarayon harbiy san'atda zamonaviylashuv zaruratini kuchaytirdi [1; 2].

Turon xalqlari harbiy san'atining tarixiy rivojida har bir davrning o'ziga xos jihati mavjud. Qadimgi davrda harbiy ish ko'proq mudofaa, ovchilik qurollarining harbiylashtirilishi va otliq jangovar ko'nikmalar bilan bog'liq bo'lgan. Ilk o'rta asrlarda turkiy harbiy tashkilot, otliq qo'shin va davlat harbiy boshqaruvi rivojlandi. O'rta asrlarda sarkardalik san'ati, qo'shin tartibi, qal'a mudofaasi, razvedka va strategik yurishlar takomillashdi. Keyingi davrlarda esa o'qotar qurol, artilleriya va harbiy-ma'muriy boshqaruvning yangi shakllari paydo bo'ldi [1; 2; 4].

Turon harbiy merosining muhim saboqlaridan biri shundaki, harbiy kuch faqat qurol yoki son bilan belgilanmaydi. Harbiy muvaffaqiyat qo'shin ruhiyati, intizom, sarkarda mahorati, manevr, razvedka, logistika, geografik sharoitdan foydalanish va siyosiy birlik bilan bog'liqdir. Harbiy tarix fanida urushlarning borishi va natijasiga iqtisodiy, siyosiy, axloqiy omillar, qo'shin soni va sifati, qurol-yarog' hamda harbiy yetakchilik darajasi ta'sir qilishi alohida ko'rsatiladi [4].

Turon xalqlari harbiy san'atini o'rganish bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu meros yosh avlodda vatanparvarlik, tarixiy xotira, milliy g'urur va davlat xavfsizligiga mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Harbiy tarix bo'yicha qo'llanmalarda ajdodlar merosini o'rganish, vatanparvarlik tarbiyasi va



harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi bilan bog'liqlik alohida qayd etilgan [1; 4]. Shu jihatdan Turon harbiy san'ati faqat tarixiy mavzu emas, balki ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega ilmiy yo'nalishdir.

**Xulosa.** Turon xalqlari harbiy san'ati uzoq tarixiy evolyutsiya mahsuli bo'lib, u ibtidoiy mudofaa vositalaridan murakkab qo'shin tuzilishi, jangovar taktika, sarkardalik mahorati va davlat harbiy boshqaruvi darajasigacha taraqqiy etdi. Bu jarayon tabiiy-geografik muhit, xo'jalik shakllari, siyosiy davlatlar, tashqi xavf-xatarlar va harbiy texnikaning rivoji bilan chambarchas bog'liq kechdi. Qadimgi Turon hududida o'q-yoy, nayza, xanjar, bolta, jangovar arava va otliq suvoriylar harbiy san'atning dastlabki asoslarini tashkil etdi. Keyinchalik otliq qo'shinlar, tezkor hujum, soxta chekinish, qanotlardan zarba berish, razvedka, qal'a mudofaasi va harbiy intizom kabi usullar takomillashdi. Amir Temur davrida Turon harbiy san'ati strategik rejalashtirish, qo'shin tartibi, zaxira kuchlardan foydalanish, razvedka, intizom va sarkardalik mahorati jihatidan yuksak darajaga ko'tarildi. Shayboniylar, xonliklar va keyingi davrlarda esa an'anaviy jang usullari bilan birga o'qotar qurol va artilneriya kabi yangi vositalar harbiy amaliyotga kirib keldi. Turon xalqlari harbiy merosi shuni ko'rsatadiki, harbiy qudrat faqat qurol-yarog' yoki son ustunligi bilan emas, balki tashkilotchilik, intizom, strategik tafakkur, jangchilarning ruhiy tayyorgarligi va sarkarda mahorati bilan belgilanadi. Shu bois bu merosni ilmiy asosda o'rganish tarixiy xotira, vatanparvarlik tarbiyasi va harbiy tafakkurni rivojlantirish uchun muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rasulova N.S., Abdijamilov A., Yarashev A. O'zbekistonda harbiy ishning shakllanish tarixi: eng qadimgi davrdan 1917-yilgacha. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 96 b.



2. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan: qadimgi davrdan hozirgacha / Mas'ul muharrir D.X. Ziyayeva. – Toshkent: Sharq, 2012. – 256 b.
3. Xasanov Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. – 440 б.
4. Uzoqov A.M., Nurullayev L.L., Nazarov T.T. Harbiy tarix. O'quv qo'llanma. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durдона, 2022. – 244 b.
5. Дадабоев Ҳ. Аждодларимизнинг ҳарбий маҳорати. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 176 б.
6. Дадабоев Ҳ., Йодгоров Ҳ. Ўзбек ҳарбий терминологияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Sahnhof, 2021.
7. Буниётов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати 1097–1231. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.
8. Темур тузуклари / Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2005.